

INSON QADRI-QIMMATINING HUQUQIY IFODASI: XALQARO VA MILLIY HUQUQDA SHAXSIY, IQTISODIY, IJTIMOYIY, EKOLOGIK HAMDA MADANIY HUQUQ VA ERKINLIK

Axmadov Sherzod Xusniddinovich

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti talabasi

Murodova Elmira

**Ilmiy Rahbar: Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti
davlat va huquq asoslari kafedrası o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21786178>

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola inson qadri-qimmati tushunchasining zamonaviy huquqiy doktrinadagi o'rnini va uning xalqaro hamda milliy qonunchilikdagi transformatsiyasini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida inson qadri-qimmati shunchaki axloqiy kategoriya emas, balki shaxsning fundamental huquqlari — shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy erkinliklarining huquqiy asosi ekanligi tahlil qilinadi. Maqolada yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari bo'yicha belgilangan yangi standartlar, xususan, "ijtimoiy davlat" tamoyilining amaliy ifodasi va ekologik huquqlarning inson hayoti sifatini ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy huquq tizimi o'rtasidagi bog'liqlik, inson qadrini himoya qilishning institutsional mexanizmlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Abstract: This scientific article is devoted to the study of the place of the concept of human dignity in modern legal doctrine and its transformation in international and national legislation. The study analyzes the fact that human dignity is not just a moral category, but the legal basis of the fundamental rights of an individual - personal, economic, social, environmental and cultural freedoms. The article discusses from a scientific point of view the new standards on human rights established in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, in particular, the practical expression of the principle of the "social state" and the importance of environmental rights in ensuring the quality of human life. It also puts forward proposals and recommendations on the relationship between international legal instruments and the national legal system, institutional mechanisms for protecting human dignity.

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению места понятия человеческого достоинства в современной правовой доктрине и его трансформации в международном и национальном законодательстве. В исследовании анализируется тот факт, что человеческое достоинство является не просто моральной категорией, а правовой основой основных прав личности – личной, экономической, социальной, экологической и культурной свобод. В статье с научной точки зрения рассматриваются новые нормы прав человека, установленные в новой редакции Конституции Республики Узбекистан, в частности, практическое выражение принципа «социального государства» и важность экологических прав в обеспечении качества жизни человека. Также выдвигаются предложения и рекомендации по взаимосвязи международных правовых инструментов и национальной правовой системы, институциональных механизмов защиты человеческого достоинства.

Kalit so'zlar: Inson qadri, ijtimoiy davlat, ijtimoiy adolat, ekologik barqarorlik, madaniy identifikatsiya va konstitutsiyaviy islohotlar.

Keywords: Human dignity, welfare state, social justice, ecological sustainability, cultural identity, and constitutional reforms.

Ключевые слова: Человеческое достоинство, государство всеобщего благосостояния, социальная справедливость, экологическая устойчивость, культурная идентичность и конституционные реформы.

Kirish

Inson qadri — huquqiy tizimning o‘zagi. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining hozirgi bosqichida "inson qadri" tushunchasi huquqiy davlatning eng oliy mezoniga aylandi. Inson qadri-qimmati — bu shaxsning jamiyatda o‘zligini anglashi, uning huquq va erkinliklari davlat tomonidan tan olinishi va ta’minlanishidir. Bugun dunyo hamjamiyatida inson huquq va erkinliklari faqatgina deklarativ xarakterdagi hujjatlar emas, balki har bir insonning munosib hayot kechirishi-ni ta’minlovchi real huquqiy mexanizmga aylanmoqda.

Xalqaro huquq nuqtayi nazaridan inson qadri tushunchasi 2-jahon urushidan keyingi davrda, insoniyat o‘z tarixidagi eng og‘ir inqirozlarni boshidan kechirganidan so‘ng huquqiy muammolarning markaziy nuqtasiga qo‘yildi. 1948-yil 10-dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning muqaddimasidayoq "inson oilasining barcha a’zolariga xos bo‘lgan qadr-qimmatni tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlikning asosi" ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Bu esa insonning barcha turdagi huquqlari, xoh u shaxsiy bo‘lsin, xoh ijtimoiy bo‘lsin, aynan uning qadr-qimmatidan kelib chiqishini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar zaminida ham aynan "Inson qadri uchun" degan ustuvor g‘oya yotibdi. Shu sababli, hammamiz bilamizki, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yilni "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili" deb e’lon qildilar. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, odamlarning dardi bilan yashash hamda mahalla tizimini rivojlantirish orqali hayot darajasini yaxshilashga qaratildi.

Shuningdek, 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz yurtimiz huquqiy tizimida tub burilish yasadi. Unda insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi sifatida belgilandi. Endilikda davlat nafaqat insonning shaxsiy daxlsizligini himoya qilish, balki uning ijtimoiy farovonligi, iqtisodiy barqarorligini ham anglatadi.

Ijtimoiy davlat va ekologik huquqlar

Bizga ma’lumki, ijtimoiy davlat bu — har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash hamda aholining muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash majburiyatini o‘z zimmasiga olgan davlat modelidir. Bunday davlatda insonning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik huquqlari davlat kafolati ostida bo‘ladi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, inson qadrini ta’minlashda ijtimoiy va ekologik huquqlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Agar ijtimoiy huquqlar shaxsning jamiyatdagi iqtisodiy barqarorligini ta’minlasa, ekologik huquqlar esa uning biologik mavjudligi va sog‘lom hayot kechirishi uchun poydevor yaratadi. Xususan, insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi uning oliy qadriyat sifatidagi o‘rnini mustahkamlaydi, zero ekologik tanazzul mavjud joyda inson qadr-qimmati va huquqlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish imkonsizdir.

Bu g‘oya shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-bobi 49-moddasida mustahkamlandi: "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega". Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik

nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. "Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi" deb belgilab qo'yildi.

Bunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 12-moddasiga ko'ra: insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi va bu muhitni saqlab qolish borasidagi burchi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi aholisi o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof-muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega. Shu maqsadda aholi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiat boyliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart.

Misol uchun, birgina Orol dengizining halokatga uchrashi tabiatga ham, hatto insonga ham katta zarar yetkazmoqda. Mintaqada hayvonot va o'simliklar olami genofondining deyarli yarmidan ko'pi, ya'ni baliqlarning 11 turi, sutemizuvchilarning 12 turi, qushlarning 26 turi va o'simliklarning 11 turi yo'q bo'lib ketdi. Hozirgi kunda Orol dengizi ayrim manbalarda "kemalar qabristoni" deb nomlangan va Orol dengizi xalqaro ekologik muammo sifatida e'tirof etilmoqda. 2021-yilda BMT Bosh Assambleyasi maxsus rezolyutsiyasini qabul qildi va Orolbo'yi mintaqasi "Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi" deb e'lon qilindi.

Inson qadrini ta'minlashda ijtimoiy va ekologik huquqlarning ahamiyati Insonning sog'lom atrof-muhitda yashashini ta'minlash uchun ham mas'ul ekanligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda inson qadrini shaxsiy huquqlar doirasida cheklab bo'lmaydi. Global ekologik muammolar, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va madaniy globallashtirish sharoitida shaxsning ekologik xavfsizligi va madaniy o'zligini saqlab qolish masalalari inson qadri-qimmatini ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli, inson huquqlari tizimi — shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy jihatlardan kompleks ravishda tadqiq etish, ularning o'zaro uyg'unligini ochib berish zamonaviy huquqshunoslik fanining muhim vazifasidir.

Inson qadrini huquqiy himoya qilishning fundamental asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlandi. Ayniqsa, davlatimizning "ijtimoiy" deb e'tirof etilishi inson qadrini ta'minlash yo'lida davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to'liq zimmasiga olishi g'oyasiga tayanadi.

Madaniy identifikatsiya — inson qadrining ajralmas qismi Inson qadri faqat uning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi bilan o'lchanmaydi. Inson o'z ona tilida gapirishi, o'zi yaratgan ixtirolardan foydalanishi, o'z milliy qadriyatlarini erkin namoyon qilishi va madaniy merosidan bahramand bo'lishi inson qadri-qimmatining asoslaridan biridir. Ta'kidlash joizki, inson qadrining madaniy identifikatsiyasi uning muayyan madaniy muhitda o'zligini anglashi va milliy qadriyatlarini erkin namoyon etishi bilan belgilanadi.

Konstitutsiyamizda O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar yagona xalq sifatida e'tirof etilishi va har bir fuqaroning madaniy huquqlari kafolatlanishi — inson qadrini ulug'lashning yuksak namunasidir. Zero, o'z madaniy o'zligidan uzilgan inson o'z qadr-qimmatini to'laqonli his eta olmaydi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga

ko‘ra: "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi" deb madaniy huquqlar konstitutsiyaviy norma sifatida e‘tirof etildi.

Xulosa va takliflar

Xulosa: O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati "Inson qadri uchun" g‘oyasiga tayanadi. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, inson qadri faqat huquqiy deklaratsiya emas, balki aniq ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladigan hayotiy zaruriyatdir. So‘nggi yillarda "Inson qadri" tamoyili doirasida aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim joriy etildi. Xususan, "Daftarlar" tizimi: "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" orqali o‘tgan qisqa davrda millionlab fuqarolarga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatildi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, birgina ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratiladigan mablag‘lar hajmi oxirgi 5 yilda 10 barobarga oshdi. Tizimli islohotlar natijasida mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 2022-yildagi 17% dan 2023-yilda 11% ga, 2024-yil yakuniga ko‘ra 9% gacha qisqardi. "O‘zbekiston — 2030" strategiyasiga muvofiq, 2025-yilda ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish orqali bu ko‘rsatkichni 7% gacha tushirish rejalashtirilgan.

Bu raqamlar inson qadrini ulug‘lash shunchaki siyosiy iroda emas, balki aniq ijtimoiy natija ekanligini tasdiqlaydi.

Inson qadrini huquqiy jihatdan yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishni taklif qilaman:

Inson qadri indeksini joriy etish: Davlat organlari faoliyati samaradorligini baholashda faqat iqtisodiy o‘sish emas, balki fuqarolarning o‘z hayotidan mamnunlik darajasini o‘lchovchi maxsus indeksni qonunchilik darajasida mustahkamlash. Ekologik javobgarlikni kuchaytirish: Konstitutsiyamizning 49-moddasidan kelib chiqib, ekologik audit to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida inson salomatligiga zarar yetkazuvchi yirik sanoat korxonalari uchun "ijtimoiy-ekologik kompensatsiya" to‘lash tizimini yanada shaffoflashtirish. Raqamli huquqlarni himoyalash: Insonning raqamli makonda daxlsizligini, ya‘ni shaxsiy ma‘lumotlar himoyasini inson qadrining ajralmas qismi sifatida ko‘rib, ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda bu boradagi sanksiyalarni qayta ko‘rib chiqish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, inson qadri — bu davlatning o‘z fuqarosi oldidagi majburiyatlari va fuqaroning o‘z huquqlarini anglash darajasi o‘rtasidagi oltin muvozanatdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz ushbu muvozanatni saqlashning eng mustahkam huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O‘zbekiston", 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
3. Statistika agentligi rasmiy ma‘lumotlari (www.stat.uz).
4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CEIR).
5. Lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi).